

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

2-son
(Maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

- 4** Oliy ta'limda kredit-modul tizimi – ta'limning mehnat bozoriga transformatsiyasidir



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- Sh. Mardonov, O. Jabborova 6** Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishning tashkiliy-pedagogik jihatlari
- A. Abdullayev 9** Boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya darslarini sog'lomlashtirishga yo'naltirish metodikasi
- D. Maxmudova 12** Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash muammosiga nazariy yondashuvlar
- M. Musurmonova 16** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida ta'lim sifatini oshirishda "Matematika" fanining ahamiyati
- R. Musurmanov, M. Musurmonova 20** Umumiy o'rta talim maktablarida pedagogik konfliktlar va ularning profilaktikasi muammolari xususida
- F. Ochilov 23** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy faoliyatini takomillashtirishda "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarining ahamiyati
- B. Axmadaliyev 27** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik bilimlarini va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda texnologik ta'lim darslarining ahamiyati
- G. Tojiboyeva, Z. Suleymanova 31** Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda didaktik o'yinlarining roli
- U. Shermatova 35** Millat ruhini saqlash yo'lida
- F. Atabekov 39** Bola tafakkurining rivojlanishida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'rmi
- O. Jabborova 43** Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning pedagogik muammolari
- M. Achilova 46** Shaxsning jismoniy, psixologik rivojlanishida pedagogikaning roli
- D. Po'latova 50** Xalq ta'limi tizimida "Barkamol avlod" maktablari
- Z. Umarova 54** Ta'lim muassasalaridagi nizolarni hal qilish



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- M. Abdullayeva 57** Pedagogik va tarbiyaviy ishlar metodikasi
- G. Kuzmanova, B. Alimov, N. Beketov 61** Uchinchi tartibli tenglamalar
- X. Gulyamova 65** Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish metodikasi
- R. Nosirova 69** Maktabgacha ta'limda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi metodlarni qo'llash orqali bolalarni maktabga tayyorlash



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- D. Mutalova 73** Ta'lim klasteri talabalarni innovatsion kasbiy tayyorlashning innovatsion asosi sifatida
- L. Boliyeva 76** Oliy ta'limda "Steam" texnologiyasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari

Shukurullo MARDONOV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, professor

Onaxon JABBOROVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim" kafedra mudiri

TA'LIM JARAYONIGA INNOVATSIYALARNI TATBIQ QILISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada ta'lim jarayonida innovatsiyalarni qo'llash va ularning ahamiyati masalalari tahlil etilgan hamda mualliflarning metodik tavsiyalari berilgan.

Kalit so'zlar. Innovatsiya, ta'lim, yondashuv, bilim, ko'nikma, metodika, tavsiya.

В данное статье размышлено о вопросах обобщения инновация в образование, дана авторский методический рекомендации.

Ключевые слова. Инновация, образование, подход, знание, навыки, методика, рекомендация.

This article reflects on the issues of generalization of innovation in education, the author's methodological recommendations are given.

Key words. Innovation, education, approach, knowledge, skill, technique, recommendation.

“**I**nnovatsiya” atamasi yangilik, o'zgarish, jarayonga qandaydir yangilik kiritish ma'nolarini ifodalaydi. Pedagogik jarayonda innovatsiya – ta'lim va tarbiya jarayonlari maqsadi, mazmuni, uslubiga, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari yangilik kiritishni ifodalaydi.

Yangiliklar yoki innovatsiyalar har qanday o'qituvchi kasbiy faoliyati uchun xarakterli bo'lib, u o'rganish, tahlil va amaliyotga tatbiq etishni talab qiladigan hodisadir. Innovatsiyalar o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi, ular alohida o'qituvchilar, pedagogik jamoalarning ilmiy izlanishlari, ilg'or pedagogik mahoratlari natijasi o'laroq paydo bo'ladi, amaliyotga joriy qilinadi, keng jamoatchilikka taqdim etiladi.

Zamonaviy uzluksiz ta'lim tizimida maqsadli pedagogik jarayonining innovatsion strategiyasi kontekstida maktab direktori, o'qituvchilar hamda tarbiyachilarning o'rni va roli oshib boraveradi.

Ta'lim texnologiyalarining – didaktik, kompyuterli, muammoli, modulli va boshqalar – turli-tumanligiga qaramasdan, ta'lim jarayonini boshqarish o'qituvchining qo'lida. Hozirgi zamon o'qituvchi-tarbiyachisi o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni faol joriy qilish, o'zi maslahatchi, tarbiyachi funksiyalarini egallab boradi. Bu jarayon, shuningdek, hozirgi zamon o'qituvchilardan maxsus psixologik-pedagogik tayyorgarlikni ham talab qiladi. Chunki o'qituvchi kasbiy faoliyatida nafaqat o'z mutaxassislik fanini bilishini, balki ta'lim va tarbiyaning zamonaviy texnologiyalarini, pedagogika va psixologiya, keyingi yillarda alohida urg'u berilayotgan xorijiy tillarning (ingliz, fransuz, nemis) biri bo'yicha, eng so'nggi zamonaviy bilimga ega bo'lishini taqozo qiladi. Shu

tariqa o'qituvchilarda pedagogik innovatsiyalarni idrok qilish, baholash va amaliyotga joriy qilish ko'nikmalari shakllanib boradi.

Ta'limdagi innovatsion jarayonlar mohiyatida pedagogikaning ikki muhim, ya'ni ilg'or pedagogik mahoratni o'rganish, umumlashtirish va yoyish muammosi hamda pedagogika va psixologiya fanlarining ilg'or natijalarini amaliyotga tatbiq qilish muammosi yotadi. Bugungi pedagogik amaliyotda esa bu ikki muammo tarqoq holda o'rganilmoqda. Shuning uchun innovatikaning predmeti, innovatsion jarayonlarning mazmun va mexanizmlari bir kontekstda yotishi, o'zaro bog'liq jarayonlarni ifodalashi zarur.

Zamonaviy jamiyat, madaniyat hamda ta'limning rivojlanishida innovatsion yo'nalishlarning pedagogik faoliyatda qo'llanilish zaruriyati qator holatlar bilan izohlanadi.

Birinchidan, sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar uzluksiz ta'lim tizimining barcha jabhalarini yangilashni, ta'lim tizimi turli yo'nalishlarining o'quv-tarbiya jarayoni metodologiyasi va texnologiyasini o'zgartirishni taqozo qildi. O'qituvchi va tarbiyachilar faoliyatining innovatsion yo'naltirilganligi pedagogik yangiliklarning yaratuvchisi, o'zlashtiruvchisi hamda foydalanuvchisi sifatida ta'lim siyosatini yangilovchi vosita rolini bajaradi.

Ikkinchidan, ta'lim mazmunining ijtimoiylashuvi ta'lim texnologiyalari, yangi o'quv predmetlarining kiritilishi, ta'lim hajmining o'zgarishi, ta'limning yangi tashkiliy shakllarini izlashni taqozo qiladi. Bunday holatlarda o'qituvchi pedagogik bilimining o'rni va roli hamkasblari orasida keskin ko'tariladi.

Uchinchidan, o'qituvchining o'zlashtirilayotgan pedagogik yangilikka munosabati o'zgaradi. O'quv-tarbiya jarayoni mazmunining qattiq reglamenti o'qituvchiga nafaqat yangi dastur va darsliklarni mustaqil tanlash, balki pedagogik faoliyatning yangi metod va vositalaridan foydalanish imkonini ham bermaydi.

To'rtinchidan, ta'lim muassasalarining bozor munosabatlariga kirib borishi, yangi tipdagi o'quv muassasalarining paydo bo'lishi – real raqobatbardoshlikni keltirib chiqarmoqda.

Zamonaviy umumta'lim maktablarida katta hajmdagi pedagogik tajriba to'plangan va u konkret pedagogik faoliyatda o'z ifodasini topishi lozim. Lekin bu tajribadan foydalanilmay kelinmoqda. Sababi ko'pgina o'qituvchi va rahbarlarda uni tanlash, tahlil qilish, ulardan foydalanish ko'nikmalari shakllantirilmagan. Amaliyotda o'qituvchilar o'zlarining pedagogik tajribasi, mahoratini, hamkasblari tajribalarini tahlil qilish lozimligi va maqsadga muvofiqligini o'ylab ham ko'rmaydilar.

Pedagogik mahorat, tajriba ommaviy va ilg'or bo'lishi mumkin. Ilg'or pedagogik tajriba tarixan chegaralangan, chunki rivojlanishning har bir bosqichi maktab oldiga yangidan-yangi talablar qo'yadi. Shuningdek, maktabning kadrlarga, material-texnik bazaga, o'quv-uslubiy (metodik) ishlarga, pedagogik faoliyatda talablari ham o'zgarib bormoqda. Shunga qaramasdan, ilg'or pedagogik mahorat, tajribalarining doimiy qaytarilib turadigan, bosqichlardan o'zgarmasdan o'tib boruvchi elementlari ham borki, ular pedagogika ilmi va amaliyotining boyligi sanaladi.

Pedagogik tajriba, mahoratning yaratilishida o'qituvchi muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, aniq tajribaning muhim qismlarini tahlil qilish va ommalashtirishda subyektiv faktor ta'siri hamda pedagogik jamoa bahosini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Pedagogik tajribada har qachongidan ham uning obyektiv qiymati va individualligi tuta-shadi. Muhimi, pedagogik faoliyatidagi individuallik ommaviy amaliyot mulkiga aylanishi mumkin. Bunda shaxs mahoratining o'ziga xosligi va betakrorligini ko'rish mumkin.

Ilg'or pedagogik tajriba jamoaviy negizda shakllanib, obyektiv pedagogik qonuniyatlarni o'zlashtirish darajasini belgilaydi. Ilg'or pedagogik tajriba turlarini novatorlik va tadqiqotchilik, pedagogik mahorat tashkil qiladi, u empirik tahlilning nazariyaga o'ziga

xos kirib borish bosqichi ham hisoblanadi.

Novatorlik va tadqiqotchilik pedagogik tajribaning o'ziga xos namunasi sifatida I.P. Volkov, A.S. Makarenko, S.N. Lisenkova va boshqalarning o'z vaqtida ilg'or bo'lgan tajribalarini keltirishimiz mumkin. Bugungi kunda ularning amaliyotdagi tajribalari butun dunyo mamlakatlari o'qituvchilarining intellektual mulkiga aylangan.

"Yangi pedagogik g'oya va texnologiyalarning targ'ibotchisi kim bo'lishi kerak?" degan savol tug'ilishi mumkin. Nazarimizda, bu o'ta muhim faoliyat bilan alohida o'qituvchilarning tajribasi, maktab tajribasi hamda ilmiy tadqiqotlar natijalarini o'rganuvchi va targ'ib qiluvchi ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari boshchiligidagi maxsus tayyorgarlikdan o'tgan o'qituvchilar guruhi shug'ullanishi lozim. Shunday maxsus guruhning shakllantirilishi zarurligini qator holatlar bilan tushuntirish mumkin.

Birinchidan, pedagogik yangilik, yoki ilg'or pedagogik g'oya, yoki texnologiya muallifi hamma vaqt ham o'z g'oya, texnologiyalarining ahamiyatini anglatmasligi mumkin.

Ikkinchidan, hamma mualliflar ham o'z g'oyalarining amaliyotga tatbiqi bilan shug'ullanavermaydi, chunki bu jarayon anchagina vaqt va mablag'ni ham talab qiladigan jarayondir.

Uchinchidan, yaratilgan yangilik muallif tomonidan ilmiy va metodik jihatdan to'g'ri asoslanib berilmasligi ham mumkin.

To'rtinchidan, muallif tomonidan talqin qilingan innovatsiya hamkasblari tomonidan to'g'ri tushunilmasligi ham mumkin (eng ko'p uchraydigan holat).

Beshinchidan, maxsus tashkil qilingan guruh esa bu yangilikka ayrim o'zgartirishlar, tuzatishlar kiritgan holda amaliyotga joriy etib borishi mumkin.

Oltinchidan, bunday guruh mamlakat va xorijda paydo bo'lgan yangi pedagogik g'oyalar, texnologiyalar, shuningdek, oliy o'quv yurtlaridagi yangiliklar monitoringini olib borib, o'z maktablarida joriy etishlari mumkin.

Maktab monitoring guruhi tomonidan olib borilayotgan bunday faoliyat o'qituvchi-muallif g'oyalarini inkor etmasligi, balki uning yangiligi, innovatsion takliflarini targ'ibot qilish ishlari bilan shug'ullanishi, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlashi, unga o'z individualligini namoyon etishga shart-sharoit yaratib berishi zarur.

Amaliyotda innovatsion jarayonlarning xarakteri olingan natija mazmuni, uning murakkablik darajasi, yangiligi, shuningdek, amaliyotchi o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ангеловски К. Учителя и инновации: Книга для учителя: Пер. с македон. – М., 1991.
2. Бабанский Ю.К. Проблемы повышения эффективности педагогических исследований: Дидактичес. сий аспект. – М., 1982.
3. Журавлев В.И. Взаимосвязь педагогической науки и практики. – М., 1984.
4. Исаев И.Ф. Теория и практика формирования профессионально-педагогической культуры преподавателя высшей школы. – М., 1993.
5. Подымова Л.С. Подготовка учителя к инновационной деятельности. – М., 1995.
6. Юсуфбекова Н.Р. Общие основы педагогических инноваций: Опыт разработки теории инновационного процесса в образовании. – М., 1991.